

ISH JOYLARIDAGI JAROHATLANISHLARNI OLDINI OLISH
BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

Abduraxmanov Abdurashid

Andijon mashinasozlik instituti dotsenti, t.f.n.

E-mail: abdurashid1948@mail.ru

Tel: +99891495-71-65

Vazira Akromjon qizi Xushvaqtova

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada ish joylaridagi jarohatlanishlarni oldini olish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalari va ularni xavfsizlikni ta‘minlashda qanchalik muhim ekanligi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik, xalqaro tajriba, hayot faoliyati xavfsizligi, zararlar, inson omili, xatolar, noqulaylik, chora tadbirlar, yechim, moslashtirish.

Abstract: The article provides information on the experiences of developed countries in preventing workplace injuries and how important they are in ensuring safety.

Key words: safety, international experience, life activity safety, damage, human factor, mistakes, inconvenience, measures, solution, adaptation.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda olib borilayotgan xavfsizlikka oid ishlarning asosiy qismi ish joylarida jarohatlanishlarni oldini olish va bu salbiy oqibatlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olish va insonlar xavfsizligini ta‘minlashdan iboratdir. Bu borada bilimlarni yanada mustakamlash va qo‘shimcha bilimlarni o‘rganish maqsadida biz rivojlangan davlatlarning tajribalarini o‘rganamiz va bizga mos keladigan darajada o‘zlashtiramiz. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad ishchilar uchun aniq sinalgan va xavfsiz ish zonasini yaratishdan iborat. Respublikamizda chuqur iqtisodiy o‘zgarish bo‘layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘p bosqichli ta‘lim tizimiga binoan oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavrlar uchun o‘quv rejasiga «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining kiritilishi bo‘lg‘usi mutaxassislarning bilimni chuqurlashtirilishiga yordam berishi so‘zsizdir.

Asosiy Qism. Dunyoda barcha jabhalarida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar shiddatli texnologik taraqqiyot, aholining ko‘payishi va mehnat bozoridagi ehtiyoj o‘zgarib borayotgan XXI asr talablariga muvofiq tarzda moslashishi uchun xavfsizlikka mutlaqo yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda, dedi yaponiyalik xavfsizlik bo‘yicha ekspert Ushio Muira. Shu sababli butunlay xavfsizlikdan

baxramand bo‘lish, bunday baxramandlik faqat maktab yoki oliy o‘quv yurti doirasida cheklanib qolmasdan, butun umr mobaynida ish joylarida davom etishi g‘oyat muhimdir. Ericson bu- tashkilotlar xavfsizlik darajasini belgilaydi, uning madaniyati orqali o‘zini samaralariga erishadi hisoblangan deydi. U shuningdek bir kompaniya tashkilotning uning doirasida madaniyat – bu xodimlar kutilmoqda va ma‘suliyat borligi uchun xavfli xatti xarakatlarni vaziyatlarni hisobot boshqariv bo‘lishi kerak. Bundan tashqari boshqaruv tizimlar orqali belgilangan bo‘lishi kerak. Kuzatishlar natijasining asosiy maqsadlaridan biri muntazam emas balki xavfsizlik jarayonidan namuna olish xavf xatarlar bilan bog‘liq xatti xarakatlarni kuchli xavola etadi. Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni oldini olishni Germaniyalik olimlar olti qadamda amlaga oshirishni tavsiya qiladi. Tavsiya etilgan ko‘rsatmalar muammolarni hal qilishga intilishning muhim qadami hisoblanadi:

- 1)Kadr va ishchilarni huquqlarini himoya qilish ;
- 2)Briefing va ta‘lim ongini o‘zgartirish xavfsizlikni xulqiy va huquqiy shakllari uning salohiyatini belgilab berish;
- 3)Amalga oshirish va tashkil qilish. Hal qilinishi lozim bo‘lgan faoliyat xavfsizligi loyihasi ustida tanqidiy fikrlash;
- 4)Xavfli ishlarni tahlil qilish xavflar darajasini baholash, eng muhimi xavfsizlik nazorat organlarini rivojlantirish va ko‘paytirish;
- 5)Xavfsizlik xodimlari kuzatuvchi ishchi guruhlarni xulq atvorlarini boshqalarga bo‘lgan aloqalarni ta‘milash;
- 6)Asosiy xavfsiz xatti xarakatlarni tashkil qilish, o‘rtacha xavfsiz xatti xarakatlarni amalga oshirish xavflarni vaqtida aniqlash va vaqtida bartaraf qilish.

Ish joylaridagi xavflar haqida bilimlarni biz “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani orqali o‘zlashtiramiz va mustahkamlaymiz.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo‘yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi-bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi. Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o‘z tarkibiga inson faoliyatining atrofmuhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo‘limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: baxtsiz, hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo‘yadigan va hal qiladigan fandır. HFX-bu har qanday ko‘rinishdagi faoliyatga qo‘llanishi mumkin bo‘lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.«Hayotiy faoliyat xavfsizligi» kursi bo‘lg‘usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg‘otishga mo‘ljallangan. Buning ilmiy zamini esa

quyidagilardan iboratdir: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o'rganish; to'qimachilik, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy joriy etishga tavsiya etilgan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash.

Mazkur kurs «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigienasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Atrof muhitni muhofaza qilish» kabi fanlar bilan bog'langandir.

HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli. Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda inson-tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf-xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistodagi zilzila, Chernobil AES halokati, Jigaristondagi yer siljishi, Admiral Naximov paroxodining cho'kishi, Serdlovskiyda Chelyabinsk-Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k.). Shuning natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. 20000 odam nogiron bo'ldi va 200000 odam kasallandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42-sessiyasida 1991-yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarni kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi. Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli.

Xavflar-yashirin (potentsial) va haqiqiy bo'ladi. Yashirin xavflar amalga oshishi uchun aniq shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabalarni misollar (raqamlarda) ko'rish mumkin:

So'nggi 40 yil ichida (1980-2020) tabiiy ofat ikki marta ko'paygan; 1954-yildan 2018-yilgacha asabiy kasalliklar 24 marta ko'paygan;

Dunyoda 500 mln. ga yaqin nogironlar bo'lib, ularning 1/5 qismi baxtsiz hodisa natijasida bo'lgan. Har qanday faoliyat yashirin (potentsial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu fikr mutlaqo xavfsiz faoliyat bo'lmasligiga asoslangan.

Xavfsizlik – bu ayrim extimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir.

Xavfsizlik – bu maqsad, HFX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llanadigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar usullardir.

HFX – bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandır.

Xavfsizlikning umumiy nazariyasining tuzilishida tamoyil (printsip)lar va usullar ko‘rilayotgan bilim sohasida aloqador to‘g‘rsida to‘la tasavvur qilishga metodologik ahamiyatga ega.

Mazkur ta‘lim yo‘nalishi xususiyatiga mos bo‘lgan amaliy va laboratoriya darslarining bir qismini kafedralarning korxon va tashkilotlardagi filiallarida o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash, malakaviy amaliyotlarni respublika, viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va bo‘limlarida, sanitariya-epidemiologiya markazlarida, qutqaruv xizmatlarida va ishlab chiqarish korxonalarining sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo‘limlarida o‘tishlari bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar ishlab chiqish zarur. Bu ham jivojlangan davlatlar tajribasidan.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam ish joylaridagi baxtsiz xodisalarning oldini olish uchun doimo qo‘shimcha bilimlarni o‘rganishimiz va kundalik hayotimizga joriy etishimiz kerak. Chunki rivojlangan davlatlarda inson hayoti uchun xavf solishi mumkin bo‘lgan xavflar minimal darajaga keltirilgan. Agarda biz ham mana shunday natijalarga erisha olsak bugungi kundagi kata muammolardan biriga yechim topgan bo‘lamiz . Bu borada asosan Yaponiya va Germaniya tajribasiga tayanishlik maqsadga muvofiq. Buning sababi bu davlatlar ish joylardagi xavfsizlikni ta‘minlar uchun eng zamonaviy usullardan foydalanishadi. Shu sababdan biz ham ishlab chiqarishdagi jarohatlarni oldini olishda yangicha bilim va tamoyillarni yo‘lga qo‘yishimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O,,zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Ganiev T A Qudratov Xudoev F. “Hayot faoliyati xavfsizligi “ maruzalar to‘plami, Toshkent” nashriyoti 20005-yil.
3. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik.-T.: ToshkentIqtisodiyot, 2014.